

**"O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDAGI NUFUZI VA UNING RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI" (O'ZBEK TILINING XORIJIY MAMLAKATLARDA
O'RGANILISHI, XALQARO TASHKILOTLARDAGI RASMIY MAQOMI VA TA'LIM
TIZIMLARIDA QO'LLANILISHI HAQIDA)**

Abduvohidova Umida Xolboy qizi

Sergeli tuman politexnikumi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14938640>

Annatatsiya. Maqolada o'zbek adabiy tilining mustaqillik davridagi ijtimoiy vazifasi xalqaro miqyosdagi nufuzi va uning rivojlanish istiqbollari" (polivalentligi) tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: adabiy til, mustaqillik, adabiy tilning ijtimoiy vazifasi, polivalentlik, milliy ruh.

**«ПРЕСТИЖ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА МЕЖДУНАРОДНОМ УРОВНЕ И
ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ» (ОБ ИЗУЧЕНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В
ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ, ЕГО ОФИЦИАЛЬНОМ СТАТУСЕ В
МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ И ИСПОЛЬЗОВАНИИ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИСТЕМАХ)**

Аннататсия. В статье анализируется социальная функция (поливалентность) узбекского литературного языка в период независимости.

Ключевые слова: литературный язык, самостоятельность, социальная функция литературного языка, поливалентность, национальный дух.

**"THE PRESTIGE OF THE UZBEK LANGUAGE AT THE INTERNATIONAL LEVEL
AND ITS DEVELOPMENT PROSPECTS" (ABOUT THE STUDY OF THE UZBEK
LANGUAGE IN FOREIGN COUNTRIES, ITS OFFICIAL STATUS IN
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS AND ITS USE IN EDUCATIONAL SYSTEMS)**

Abstract. The article analyzes the social function (polyvalence) of the Uzbek literary language in the period of independence.

Key words: literary language, independence, social function of the literary language, polyvalence, national spirit.

Kirish. O'zbek tilining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi uning ona tilida so'zlashuvchilarning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek xalqi kabi bir millatning paydo bo'lishi turkiy va eron tillarini birlashtiruvchi bir qator etnik guruhlarining birlashishi bilan bog'liq edi. Buni orasida katta farq bo'lgan o'zbek lahjasidagi dialektlarning ko'pligidan bilish mumkin.

O'zbek tilining rivojlanish tarixini uch bosqichga bo'lish mumkin: qadimgi turkiy, qadimgi o'zbek va zamonaviy o'zbek tili davrlari.

Qadimgi turkiy til

Ushbu bosqich V-XI asrlarga tegishli. Turkular Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg'oqlari bo'ylab hind-eron qabilalari aholisini asta-sekin chiqarib yuborishgan. Aloqa vositasi qadimgi turkiy til bo'lib, uning asosida keyinchalik ko'plab Osiyo tillari paydo bo'lgan. Bugungi kunda qadimgi turkiy yozuvning faqat o'sha davrga tegishli madaniy yodgorliklarda tasvirlangan qismlari mavjud.

Qadimgi o'zbek tili

Ikkinchi bosqich XI-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Shu vaqt ichida o'zbek tili ko'plab qo'shni tillar ta'sirida rivojlandi. Tilning shakllanishiga birlashgan va rivojlangan adabiy tilni yaratgan shoir Alisher Navoiy ulkan hissa qo'shdi. Bu shaklda u 19-asrning oxirigacha o'zgarishsiz ishlatilgan.

Hozirgi o'zbek tili

XX asrda zamonaviy o'zbek tilining shakllanishi boshlandi. Butun O'zbekiston aholisi tomonidan tan olingan Farg'ona lahjasi uning asosini tashkil etdi. Aholining aksariyati sartiya tili deb biladigan ushbu lahjada gapirishgan va uning karnaylari sartlar deb nomlangan. Etnik sartlar o'zbek xalqiga tegishli emas edi, ammo o'tgan asrning 20-yillarida "sart" so'zidan voz kechildi va mamlakat aholisi o'zbeklar deb nomlana boshladi. Adabiy til normalari yanada demokratiklashdi, bu esa uni ancha soddalashtirdi.

O'zbek yozuvi

Butun rivojlanish tarixi davomida o'zbek tilida uch xil yozuv mavjud edi. O'tgan asrning 20-yillari oxirigacha o'zbeklarning etnik guruhi arab alifbosiga asoslangan edi. Sovet hokimiyati paydo bo'lishi bilan yozuv bir qator islohotlarga duch keldi. So'ng 1938 yilgacha Lotin alifbosi ishlatilgan, keyin esa kiril alifbosiga o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlatga aylangandan so'ng 1993 yilda yana lotin alifbosi qaytarildi.

Muhokama. Bugungi kunda o'zbek yozuvida arab harflari, lotin va kirill harflari parallel ravishda qo'llanilmoqda.

Katta avlod kirill grafikasini afzal ko'radi, chet elda yashaydigan o'zbeklar esa arab harflariga o'rganishgan. Maktablarda o'qivchilar lotin tilida o'qishadi, shuning uchun o'quvchilar va o'quvchilarga Sovet davrida nashr etilgan kitoblarni o'qish juda qiyin.

O'zbek tili fors tilidan olingan so'zlarga boy. XX asrda lug'at rus tilidagi so'zlar bilan sezilarli darajada boyitildi va bugungi kunda u ingliz tilidagi so'zlar bilan jadal ravishda to'ldirilmoqda. Davlat dasturiga muvofiq, o'zbek tilini boshqa tillardan olingan so'zlardan tozalash boshlangan. Bularning barchasi, shubhasiz, o'zbek tilini va tarjimalarini o'rganishda ba'zi bir qiyinchiliklarga olib keladi, ammo uni o'ziga xos va yanada qiziqarli qiladi. Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

O'zbekistonda 1989-yil 21-oktyabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Bugun O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlashda tilga oid qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar va

boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning o'zni katta. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 21 oktabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 30 yil to'lishi munosabati bilan imzolandi, 21 oktabr kuni «O'zbek tili bayrami kuni» deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-son Farmoniga asosan Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilgan. 2020 yil 20 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni qabul qilinib, ushbu Farmon asosida «2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi» ishlab chiqilgan edi. Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni nazarda tutadi:

2025- yilga qadar davlat maktabgacha ta'lim tizimida o'zbek tilli guruhlar qamrovini 72 foizga, 2030 yilgacha esa 80 foizga yetkazish;

2030- yilga qadar umumta'lim maktablarida o'quv yillari uchun tayanch o'quv rejalarida ona tili fanini o'qitish ko'lamini amaldagi haftada 84 soatdan 110 soatgacha oshirish;

oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 2025 yilga qadar 120 taga, 2030 yilgacha esa 140 taga yetkazish;

lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida «O'zbekiston milliy qomusi» jildlarini nashr etishni bosqichma-bosqich ko'paytirib borish;

2020-yilda o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi 15 ta lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish;

teleradiokanallar suxandon-boshlovchilarining o'zbek adabiy tilidagi nutq madaniyatini oshiruvchi qayta tayyorlov kurslarida o'qitish tizimini joriy etish va qamrovni 2030- yilgacha 100 foizga yetkazish;

2025-yilga qadar davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish uchun 14 ta onlayn dastur ishlab chiqish, 2030 yilgacha esa ushbu ko'rsatkichni 25 taga yetkazish;

dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalari va elektron lug'at dasturlarini yaratish;

xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish;

2030-yilga qadar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'rgatuvchi markazlar sonini amaldagi 17 tadan 60 tagacha ko'paytirish;

2025-yilga qadar «O'zbek tilining do'stlari» klublari sonini 30 taga, 2030 yilgacha esa 40 taga yetkazish.

Zero, bugungi kunda ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak. Shu boisdan Konsepsiyaga ko'ra, ko'p jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati»ning to'ldirilgan yangi nashri (kirill va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida);

“O'zbek tilining imlo lug'ati”

«O'zbek tili sinonimlari lug'ati»

«O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati»

«O'zbek tili frazeologizmlarining katta izohli lug'ati»

«O'zbek tili omonimlari lug'ati»ni yaratish vazifasi yuklatildi.

Ammo shu o'rinda qayd etish joizki, ayrim o'rinlarda til masalasida dilni xira qiladigan holatlar ham uchrab turadi. Ayniqsa ko'chalarda do'konlar, supermarketlar, turli xil ustaxona shoxobchalari, go'zallik salonlari, turli xil osmono'par binolar, bog'chalarga qo'yilgan nomlar o'zbek tilida emas balki, boshqa xorij tillarida yozilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu haqiqatni isbotlash uchun siz ulkan bir ilmiy izlanish qilishingiz shart emas, aynan ko'chaga o'tlanib turib, qo'lingizga qalam va ruchka olgan holatda chiqsangiz kifoya. Naqadar achinarli holat bo'lishiga qaramay, biz bunga ko'nikib yashab kelmoqdamiz! Axir biz O'zbekistonda yashayapmiz-ku, nima uchun unda joy nomlarini o'zbek tilida nomlay olmaymiz?

Buning uchun kim aybdor: davlat organlarimi yoki o'zbek millatimi? Ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekistonda osmono'par binolar qurilayotgan bo'lishiga qaramasdan, ularning nomi hali-hamon ingliz tilida ekanligi haqida bildirilgan turli xil fikrlarga duch kelishimiz mumkin.

Zero, til har bir millatning ko'zgusi, uning ma'naviy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqini keltirishimiz mumkin:

«Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va taqisir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin».

Umuman, «2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi» ni amalga oshirishdan maqsad mamlakat hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish, barcha davlat organlari va tashkilotlarida davlat tilida ish yuritish salohiyatiga ega bo'lgan malakali kadrlar faoliyat ko'rsatishini ta'minlashdan iborat. Shu bilan birga, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalar muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritish, davlat tili barcha fan tarmoqlariga oid ilmiy tadqiqotlarda ilm-fan tili sifatida nufuzga ega bo'lish, o'zbek tili o'quv leksikografiya tarmog'ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o'quv lug'atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini yaratish orqali sohalar bo'yicha milliy terminologik tizimni takomillashtirish maqsad qilingan. Va o'zbek tili va adabiyotini o'qitishning yangi, zamonaviy metodikasini yaratish orqali til ta'limi samaradorligini oshirishga erishiladi. Shu boisdan 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining ishlab chiqilishi davlat tili sofliğini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Tilimizning mavqeiga qaratilgan e'tibor ertangi avlodning kelajagi haqida qayg'urishimizning muhim asosi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqei va nufuzini oshirish, jamiyatning barcha sohalarida faol qo'llanilishiga erishish, yosh avlodni ona tilimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganligi buning yaqqol tasdig'idir.

Nazariyotchi tilshunos M. M. Guxman milliy adabiy tilning xususiyati haqida shunday deb yozgan edi: Rivojlangan milliy tillar vujudga kelgan davrda adabiy tilning bu turi asta-sekin tilning boshqa mavjudlik shakllarini siqib chiqaradi, ularning ijtimoiy ahamiyatini pasaytiradi va umummilliy normaning ifodachisi, milliy til mavjudligining oliy shakliga, lisoniy aloqaning universal vositasiga aylanadi. Shu munosabat bilan savol tug'iladi. Xo'sh, davlat tili haqidagi qonun qabul qilinib istiqloлга erishganimizdan keyin o'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasi (polivalentligi) to'liq shakllandimi? O'zbek milliy adabiy tili lisoniy aloqaning universal vositasiga aylandimi? Afsuski bu savolga ha deb javob bera olmaymiz. Chunki o'zbek adabiy tilining istiqloldan keyingi ahvolini kuzatsak "Davlat tili haqida"gi qonun talablarining ko'p holda

bajarilmayotgani, davlat tilining amaliyotga keng joriy qilinmayotgani, jonajon poytaxtimiz ko'chalari ajnabiy yozuvlarga to'lib ketayotgani, shahar maktablari imijimida ruslashtirilayotgani, qonunlarimiz hali ham boshqa tilda ijod qilinayotganligi ga guvoh bo'lamiz. Shuning uchun ham O'zbekiston Prezidenti SH. M. Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudentsiya, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to'laqonli qo'llash bilan bog'liq" degan edi. O'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasini to'liq bajarishi davlat (aniqrog'i davlatning til siyosati)ga, jamiyat (xalq) va shaxsning ruhiyatiga bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki til haqidagi qonun qabul qilinib (1989), keyinchalik uning tahrir etilishi (1995) bilan davlat bu boradagi o'z vazifa-sini bajardi. O'zbek adabiy tiliga siyosiy va huquqiy erk berildi. Binobarin mamlakatda o'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasini cheklaydigan siyosiy va huquqiy kuch yo'q. Mazkur qonunning amal qilishi aniqrog'i adabiy til ijtimoiy vazifasini to'la bajarishi uchun esa «xalqimiz ruhan ham uyg'oq bo'lmog'i darkor. Ruh bedorligiga uning rahbar-rahnamolari, olimu ziyolilari, barcha farzandlari mas'uldir» (I. Karimov. Tafakkur jurnali, 1997, 2-son,12) [Zikrillayev, 2018: 52]. Binobarin malomatli maraz bo'lgan mustamlakachilik asoratini mahv etish yo'llarini ko'rsatish ham tilshunos, ham adabiyotshunosning birlamchi vazifasi bo'lmog'i darkor. SHu munosabat bilan milliy ruh masalasi dolzarb muammoga aylanadi. Negaki milliy ruh uyg'oq bo'lib yuqori darajada zuhur etgan taqdirdagina polivalentlik to'la shakllanadi, aks holda adabiy tilimiz ijtimoiy hayotning hamma sohasida barcha tomonidan qo'llanadigan bo'lishi uchun uzoq vaqt talab etiladi. Sotsialistik tuzumda kommunistik mafkura, ateistik dunyoqarash yakka-hokim bo'lganidan ruhiyat masalalari e'tibordan chetda qoldi. Ma'lumki, milliy ruh uzvli tushuncha bo'lib milliy ong (aql, tafakkur) va milliy tuyg'u (idrok)dan tuzilgan. Milliy adabiy tilning ahvoli ana shu ma'nodagi milliy ruhga bog'liq bo'ladi. Afsuski hozircha barcha ijtimoiy guruh (jamo) va tabaqada shunday ruh ustuvor deya olmaymiz. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Kamol Matyoqubovning so'zlari ham bu fikrni tasdiqlaydi: Umuman olganda, "Davlat tili haqida"gi qonunga, farmonga bunday e'tiborsizliklarning, sohada yuz berayotgan yuqoridagidek kamchiliklarning asl sababi nimada, degan savol tug'iladi. Sababi oddiy. Aksariyatimizning qalbimizda davlat tiliga, ya'ni o'zbek tiliga, garchi, bu tilni nihoyatda sevamiz, deb to'tiqushdek ming martalab takrorlasak ham, mehrmuhabbat yo'q, undan chinakamiga faxrlanish, iftixor qilish, g'ururlanish tuyg'ulari yo'q. Shu bois adabiy tilimiz ijtimoiy vazifasini to'la bajarmayapti.

Harbiy soha, sport, fan-texnika, tibbiyot, ish yuritishga adabiy tilning kirib kelishi qiyin kechmoqda. Masalan tibbiyotda ilmiy tadqiqotni qo'yib turayligu oddiy retsept yozish yoki kasallik varaqasini to'ldirish hozirgi kunda ham asosan rus tilida bo'lyapti. Buning sababi yoshi kattaroq shifokorlar sho'ro farzandi bo'lib rus tilida o'qiganligidan ruscha fikrlashdan qutula olmayotgan bo'lsa hozir bitirayotganlarga ham shunday professor-o'qituvchilar dars berayotganligidir. Davlat boshqaruvi organlarida rus tili "katta obro'"ga ega bo'lsa-da, oxirgi yillarda hujjatlarni o'zbek tilida yuritish o'sib bormoqda. Ba'zi siyosatchilar hamma hujjatni o'zbek tiliga o'tkazishga chaqirmoqda. Ammo shu narsa ayonki, markaziy ijroiya qo'mitalari va respublika parlamenti rus tilida faol sur'atda hujjat yuritayotgan ekan, bu sohada siljish bo'lishi qiyin masala. Keyingi paytlarda ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, binolar, do'konlar, xususiy muassasalar nomlarini yozishda nafaqat davlat tili haqidagi qonunga amal qilinmayotibdi, balki ularni xorijiy tillarda bitish nihoyatda avj olib bormoqda. So'zimiz isbotsiz bo'lmasligi uchun Toshkent shahrining xohlagan ko'chasidagi yozuvlarga – xususiy korxonalar, bannerlarga bir nazar tashlang. Har qadamda «Beanty salon», «La Perla Cosmetics», «Golden River», «Dark hall», «Elegant», «Creative Master». «Viva», «Savio», «Star Med Center», «Avisa Med Servis», «Salus Vita» larga duch kelasiz. «Mini market», «Pich market»larning esa sonsanog'i yo'q. Shular qatorida aksariyat binolarning peshtoqlari - «Дверь», «Центр обуви», «Учебный центр», «Подготовка абитуриентов», «Языковые курсы», «Дошкольное обучение», «Зеленый базар», «Срочное фото», «Цветная печать» kabi rus tilidagi nomlar bilan bezalgan. Oshxonalar nomi yonidagi "milliy taomlar" "multi taomlar"ga, palov degan nom «plov»ga aylangan. Yurtimizning «O'zbekiston» deb atalgan go'zal nomi esa «Uzbekistan»ga aylanib ulguribdi. Endilikda ingliz, rus tilidagi nomlar yoniga nemis, fransuz, koreys, xitoy va boshqa tillardagi turli-tuman atamalar ham kelib qo'shilmoqda. Xullas, poytaxtning xohlagan ko'chasiga kirsangiz, 80-85 foiz xorijiy tillardagi, 15-20 foiz o'zbek tilidagi nomlarga, atamalarga, shiorlarga duch kelasiz. O'zingizni Toshkent shahri ko'chalarida emas, London, Moskva shaharlari ko'chalarida yurgandek his qilasiz. Go'yo yurtimizda o'zbek tili emas, boshqa tillar davlat tiliga aylangandek taassurot tug'iladi

Xulosa. Yuqoridagi kabi holatlarga yana ko'plab misol keltirish mumkin. Biroq shularning o'ziyoq o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasini to'la bajarmayotganidan dalolat beradi. O'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasi haqida so'z yuritayotgan ekanmiz, bu bilan bog'liq yana bir muhim masalaga to'xtalib o'tishimiz lozim. Bu o'zbek tilining internet tizimida qo'llanishi aniqrog'i internet tiliga aylanishi masalasidir.

«Globallashuv asrida tillarning yashab qolishi ko'proq axborot-kommunikatsiya sohasida, internet tizimida qo'llanish darajasi bilan bog'liq. Qaysi til internet tili emas ekan, bu tillarning ro'parasida o'lim xavfi turaveradi» [Til nega o'ladi?, 2019]. «Masalan Yevropadagi Islandiya davlatining tili bo'lgan island tili o'lik tilga aylanayotgani barcha millatparvar kishilarni hushyor torttirishi tabiiy. Mutaxassislar fikricha, Islandiyada internet tili ingliz tili bo'lgani uchun island tilining qo'llanish doirasi toborasi tobora torayib bormoqda. Internet kompyuter texnologiyalariga tayanadi. Kompyuter lingvistikasida «kompyuterning tilni tanishi» degan tushuncha bor. Agar kompyuter tilni tanir ekan, tilning kompyuter tili, internet tili ekanligi haqida so'z yuritish to'g'ri bo'ladi. Kompyuter tilni «tanishi» uchun u bu tilni «bilishi» zarur. Kompyuterning matndagi xatolarni tuzatishi, matnni qayta ishlashi, annotatsiyalashi, tilni o'rgatishi, transliteratsiya qilishi, til ifodalarini tasniflashi, tartiblashi, biror tilda gapirishi, yozishi asosida uning tilni tanishi asosida amalga oshiriladi» [Til nega o'ladi?, internet]. «Tilning internet, kompyuter texnologiyalari tiliga aylanishi matematik lingvistika, uning davomi bo'lgan kompyuter lingvistikasining shakllangani va rivojlanish darajasi bilan bog'liq. Ayniqsa, sun'iy intellekt uchun tabiiy tillarni modellashtirish kompyuter lingvistikasining asosiy, pirovard vazifasi hisoblanadi. Dunyo miqyosida sun'iy intellektlar yaratish asosida tabiiy tillarni matematik modellashtirish yotadi. Matematik modellashtirish natijalari sun'iy intellektning faoliyat dasturini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'zbek tili misolida hali ochilmagan qo'riq» [Til nega o'ladi?, internet].

Aytilganlardan ko'rinadiki o'zbek tilini kompyuter, internet tiliga aylantirish ham o'zbek adabiy tilining ijtimoiy vazifasini kengaytirish uchun zarur bo'lgan muhim vazifalardan biridir.

Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, adabiyot, matbuot, radio, televideniye, o'rta va oliy maktabda o'zbek tili ustuvor. Bu sohalarda o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasini bajaryapti deyish mumkin. Lekin adabiy tilning boshqa belgilariga (me'yoriylik, umummajburiylik, uslubiylikka) to'la rioya qilinyapti deya olmaymiz. Binobarin adabiy tilimizning madaniyati (nutq madaniyati)ni yuqori deb bo'lmaydi. Xulosa sifatida aytish mumkinki o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasini to'la bajarishi uchun xalqimizning barcha vakilida milliy ruhni uyg'otish, shu asosda «ona tilimizning qo'llanish doirasini yanada kengaytirish, ayniqsa, uning ishlab chiqarish, fundamental fan, tibbiyot, harbiy ish, yurisprudentsiya, axborot texnologiyalari va boshqa yo'nalishlarda faol istifoda etilishini ta'minlash» zarur. Bu davlat va hukumat rahbarlari, tilshunos, adabiyotshunos va boshqa soha olimlari, shoir, yozuvchi, til muallimi oldida turgan dolzarb vazifadir.

REFERENCES

1. Гухман М. М. Литературный язык // Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. Москва, “Наука”, 1970, 604 с.
2. Одилов Ё. Тил ва жамият таъсирлашуви. Ўзбек тили ва адабиёти журнари, 2020, 4-сон. 10 – 17-б.
3. Абдият деворидаги битик. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган мураббий, шоир Мирзо Кенжабек билан суҳбат // Тафаккур журнари, 2020, 4-сон. 4 – 15-б.
4. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://uza.uz/uz/posts/prezident-shavkat-mirziyeevning-zbek-tiliga-davlat-tili-ma-o-21-10-2019>.
5. К. Матёкубов. Миллат кўзгусига ғубор туширмайлик. <http://www.adolatgzt.uz/society/5737>.
6. Нима учун ўзбек тили фан ва сиёсат тили бўла олмади. <https://zamin.uz/uz/ozbekiston/50047-nima-uchun-ozbek-tili-fan-va-siyosat-tili-bola-olmadi.html> 352
7. Shahnoza Soatova. Ona tilimiz sofligi va boqiyiligini saqlashga har birimiz mas’ulmiz. [https://yuz.uz/uz/news/ona-tilimizning-sofligi-va-boqiyiligini-taminlashga - har-birimiz-masulmiz](https://yuz.uz/uz/news/ona-tilimizning-sofligi-va-boqiyiligini-taminlashga-har-birimiz-masulmiz).
8. Til nega o‘ladi? Global tanazzuldan omon qolish mumkinmi? – Professor bilan suhbat. <https://m.kun.uz/uz/news/2019/10/20/til-nega-oladi-global-tanazzuldan-omon-qolishmumkinmi-professor-bilan-suhbat>.
9. Сирожиддинов Ш. Ўзбек тили ва адабиёти бўйича малакали мутахассисларни тайёрл